

**AFG'ONISTON-SOVET ITTIFOQI DIPLOMATIK
MUNOSABATLARINING DASTLABKI BOSQICHI: ABDUSAMAD
BOBOXO'JAYEV VA MIRZO MUHAMMAD "YAFTALI"NING 1958-YIL
KOBULDAGI SUHBATI**

Muallif: Abdullayev Botir Jabbor o‘g‘li.

Annotatsiya

Ushbu maqola 1958-yilda Kobul shahrida o‘tkazilgan Abdusamad Boboxo‘jayev va Afg‘oniston davlat vaziri Mirzo Muhammad “Yaftali” o‘rtasidagi rasmiy suhbat asosida yozilgan. Suhbat Afg‘oniston mustaqilligini tanitish, Sovet Ittifoqi bilan ilk diplomatik aloqalar hamda tashqi siyosatning muhim jihatlarini yoritadi. Shuningdek, maqolada ikki shaxsning siyosiy faoliyati, ularning mintaqaviy diplomatiyadagi roli va Prezident Shavkat Mirziyoyevning zamonaviy tashqi siyosatga oid qarashlari bilan bog‘liqlik tahlil qilinadi.

This article is based on the official meeting held in 1958 in Kabul between Abdusamad Bobokhodjaev and Afghan Minister of State Mirzo Muhammad “Yaftali.” The conversation highlights Afghanistan’s efforts to gain international recognition of its independence, the establishment of its first diplomatic relations with the Soviet Union, and the main aspects of its foreign policy. The article also analyzes the political activities of both figures, their roles in regional diplomacy, and the connection of their policies with President Shavkat Mirziyoyev’s views on modern foreign relations.

Данная статья основана на официальной беседе, состоявшейся в 1958 году в Кабуле между Абдусамадом Бобоходжаевым и министром государства Афганистана Мирзо Мухаммадом «Яфтали». В беседе рассматриваются вопросы признания независимости Афганистана на международной арене, установления первых дипломатических отношений с Советским Союзом и основные направления внешней политики. В статье также анализируется политическая деятельность обеих личностей, их роль в региональной дипломатии и связь с современными взглядами Президента Шавката Мирзиёева на внешнюю политику.

Kalit so‘zlar :Afg‘oniston, Sovet Ittifoqi, tashqi siyosat, Mirziyoyev, diplomatik missiya

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va Afg‘oniston o‘rtasidagi siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalar murakkab va nozik bosqichda edi. Bu jarayonda ikki muhim shaxs – O‘zbek tarixchisi va diplomat Abdusamad Boboxo‘jayev hamda Afg‘oniston davlat vaziri Mirzo Muhammad “Yaftali” alohida o‘rin tutadi.

Abdusamad Boboxo'jayev o'zining tarixiy va siyosiy faoliyati bilan mintaqaviy diplomatiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U Afg'onistonga qilgan safarida mamlakat bilan O'zbekiston o'rtaida yanada mustahkam aloqalar o'rnatishga harakat qildi.

Mirzo Muhammad "Yaftali" esa, Afg'oniston mustaqilligi va tashqi siyosatining shakllanishida markaziy rol o'ynagan. U ikki bor Sovet Ittifoqida favqulodda va muxtor elchi sifatida faoliyat yuritgan. Uning diplomatik faoliyati Sovet Ittifoqi bilan o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi va Afg'onistonni xalqaro maydonda tanitishda muhim omil bo'ldi (Malikov, 1995).

Boboxo'jayev tomonidan Mirzo Muhammad "Yaftali"ga uchta asosiy savol berildi: mustaqillikdan keyingi tashqi siyosiy chora-tadbirlar, Sovet Ittifoqiga yuborilgan favqulodda missiyaning tuzilishi va faoliyati, shuningdek, Yaftalining Moskvadagi diplomatik tajribalari.

Yaftali o'z javobida Afg'oniston mustaqilligini tanitishda duch kelgan qiyinchiliklarni ta'kidlaydi: "Rossiya inqiloblar davom etayotgan bo'lsa-da, Afg'oniston uchun yagona yo'l edi. Hindiston yo'li yopiq, inglizlar Mervda va Mashhadda kuchaygan, Xitoy uzoq va Shinjon ingliz ta'sirida edi" (F.2850, Op.1, D.164).

Uning aytishicha, favqulodda missiya Sovet Ittifoqi bilan do'stlik munosabatlarini o'rnatish va mustaqillikni xalqaro darajada tanitishda muvaffaqiyat qozondi:

"Afg'oniston birinchi bo'lib Sovet Rossiyasini tanidi va do'stlik shartnomasini imzoladi" (Rahmonov, 2003).

Favqulodda missiya tarkibida elchi, maslahatchi, harbiy attashe, qozi va ikki kotib bo'lgan. Missiya Qizil-Arvatdagi harbiy harakatlar sabab Mervda 3 oy to'xtab, so'ng Tashkentda 10 oy qolgan. Bu vaqt ichida Yaftali missiya boshlig'ining o'rinosi vazifasini bajarib, keyinchalik Moskvada Afg'onistonning favqulodda va muxtor elchisi etib tayinlangan (Fayzullayev, 2010).

Yaftali Sovet Ittifoqida bo'lgan paytda, ilk xorijiy davlat bayrog'i uning boshchiligidagi elchixonaga binosida hilpiragan, bu esa tarixiy hodisa sifatida qayd etilgan (Malikov, 1995).

Yaftali Sovet Ittifoqida ikki yil yashab, Lenin bilan ikki marotaba uchrashdi. U o'zining memoarlarida ushbu uchrashuvlar haqida shunday yozadi:

"Lenin bilan Kremlda va Bolshoy teatrda uchrashuvlarim menga Sovet siyosatining qat'iyligini ko'rsatdi" (Mirzo Muhammad "Yaftali", 1958).

U shuningdek, Sovet Ittifoqining murakkab iqtisodiy va ijtimoiy holatini yodga oladi: ocharchilik, qattiq qish va urush sharoitlari.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan shakllantirilgan O‘zbekiston tashqi siyosatida ham Afg‘oniston bilan hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Prezidentning 2021-yil 16-iyul kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda bildirgan fikrlariga ko‘ra:

“Afg‘oniston – bu faqat qo‘shni emas, balki butun mintaqqa barqarorligi va taraqqiyotining asosiy halqasi.”(Sh.M. Mirziyoyev, "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik", 2021)

Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston tashqi siyosati — ochiqlik va mintaqaviy pragmatizm” tamoyillari asosida Afg‘oniston bilan ham savdo, transport, xavfsizlik va madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mirziyoyev ta’kidlaganidek:“Biz Afg‘onistondagi vaziyat barqarorlashmas ekan, mintaqada to‘liq tinchlik haqida gap bo‘lishi qiyin.” (Sh.M. Mirziyoyev, BMT Bosh Assambleyasidagi nutqidan, 2022)

Bu yondashuv tarixda Afg‘oniston mustaqilligi davridagi tashqi siyosiy strategiyalarga o‘xshash bo‘lib, ichki barqarorlikni ta’minalashda tashqi omillarning hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi.

1958-yil Kobulda o‘tkazilgan Abdusamad Boboxo‘jayev va Mirzo Muhammad “Yaftali”ning suhbat Afg‘oniston va Sovet Ittifoqi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning muhim bosqichini aks ettiradi. Ushbu suhbat tarixiy manba sifatida mustaqillikni tanitish, davlatlararo do‘stlik va hamkorlikning ilk qadamlarini yoritadi. Mirzo Muhammad Yaftalining arxiviy suhbatidan ayon bo‘ladiki, Afg‘oniston o‘z tashqi siyosatini g‘arbiy imperiyalar ta’siridan mustaqil holda shakllantirishga intilgan va bu yo‘lda Sovet Rossiysi bilan hamkorlikka tayanadi. Diplomatik missiyalar, shaxsiy elchilar, va xalqaro tan olinish bo‘yicha qilingan harakatlar bugungi mintaqaviy siyosat bilan bevosita bog‘liq.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashqi siyosiy qarashlari va Afg‘oniston bilan konstruktiv munosabatlar qurishga qaratilgan sa'y-harakatlari tarixiy tajribalar bilan mushtaraklikka ega. Bu esa O‘zbekiston tashqi siyosatida tarixiy xotira va zamonaviy yondashuv uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev. Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog‘liqlik – tahdidlar va imkoniyatlar. Xalqaro anjuman nutqi, Toshkent, 2021.
2. Sh.M. Mirziyoyev. BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi. Nyu-York, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi, F.2850, Op.1, D.164
4. Malikov, A. Afg‘oniston diplomatiyasining shakllanishi. Toshkent. 1995
5. Rahmonov, I. Sovet-Afg‘on munosabatlari tarixi. Toshkent. 2003
6. Fayzullayev, M. Markaziy Osiyo va Afg‘oniston: tarix va siyosat. Toshkent.2010